

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



SH. Sharipov.



Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

Ro'yhatga olindi: MD-5A110902-2.01

2018 - yil "18" 08

PSIXOLOGIYA FANINING METODOLOGIYASI

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar
Ta'lim sohasi:	110000 – Pedagogika
Magistratura mutaxassisligi:	5A110902-Pedagogika va psixologiya

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2018-yil "18" "08" dagi 4 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil "25" "08" dagi 744-sonli buyrug'i bilan ma'qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:

Z.T.Nishonova– Nizomiy nomidagi TDPU "Psixologiya" kafedrasi professori, psixol.f.dok

Taqrizchilar:

B.Umarov – TDAYI psixologiya fanlari doktori, professor

N.X.Lutfullaeva-TDIU "Kasbiy ta'lim (iqtisodiyot)" kafedrasi mudiri, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'quv-uslubiy Kengashida tavsiya qilingan (2018-yil 28 06 dagi 11 -sonli bayonnomasi).

I.O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Psixologiya fanining metodologiyasi fani psixologiyaning fundamental tamoyillari, nazariyalarini tahlil qilish imkonini berganligi bois magistrantlarda ilmiy dunyoqarashni shakllanishiga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida psixologiyaning fundamental nazariy muammolarini echimini izlash va topishga zamin hozirlaydi.

Psixologiya fanining metodologiyasi fani umumkasbiy fanlar blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, 1 kurslarda o'qitilishi maqsadga muvofiq. Psixologiya fanining metodologiyasi fani gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar turkumiga kiradi va barcha pedagogik yo'nalishdagi magistratura mutaxassisliklarida ham o'qitiladi. Mazkur fan boshqa psixologik fanlarning nazariy va uslubiy asosini tashkil qilib, o'z rivojlanishida aniq yo'nalishidagi psixologik fanlar uchun zamin bo'lib xizmat qiladi.

II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

Fanni o'qitishdan maqsadi-psixologiya fanining nazariy va metodologik muammolari fanining maqsadi maxsus metodologik muammolarni hal qilish, psixologiyaga taalluqli masalalar yuzasidan mulohaza yuritish va mavjud kontseptsiyalarga ilmiy yondashuvni, psixologiya maktablari va ularning nazariyalarini o'rganishdir.

Fanning vazifalari- yuqoridagi qayd etilgan maqsadga muvofiq quyidagilardan iboratdir: psixologiyaning predmeti, psixologiyadagi tadqiqot metodlari, psixikani o'rganishning ob'ektiv metodi masalalari, determinizm muammosi, inson psixikasining ijtimoiy va biologik munosabati, psixofiziologik muammolar, psixologiyaning kategoriyalari, bilish nazariyasi va umumiy milliylik muammolarini o'rganadi.

Psixologiya fanining metodologiyasi fanini o'rganish jarayonida magistr quyidagilarni bajara olishi lozim **Magistr:**

- metodologiya to'g'risida umumiy tushuncha, metodologiya tushunchasining talqini va tuzilishi haqida, metodologiya ilmiy tadqiqotning metodlari, usullari majmuasi ekanligini, zamonaviy nazariyalarni taxlil qilishda metodologik tamoyillar; zamonaviy ilmiy maktablar va amaliyot; ilmiy tadqiqot metodlarining har biriga alohida tavsif berishni, psixologiya: *fandagi krizis bilimga;*

- yirik psixologik maktablar ta'limoti va ularning namoyondalari kontseptsiyalari, ilmiy psixologiya: paradigmalari, kognitiv yo'nalish va uning nazariy manbalari, nazariyalar va psixologiya fani taraqqiyotining asosiy tendentsiyalarini, nazariya va usul nisbati markaziy muammo sifatida, kommunikativ metodologiya: ososiy vazifalari, psixologiya metodologiyasining aktual muammolari haqida *ko'nikma;*

- psixologiyaning metodologik asoslari fanining rivojlanishidagi krizislar hozirgi zamon psixologiya maktablarining taraqqiyoti psixologik g'oya va qarashlarni o'qitish jarayoniga qo'llay olish bilishi, psixologiyaning ilmiy maktablari va psixologiya fanining rivojlanishi, klassik ilmiy psixologik maktablar, psixologiyaga doir adabiyotlarni mustaqil o'rganish va uni turli soxalarda ya'ni

akademik litsey, kasb-xunar kolejlari, oliy ta'lim, ishlab chiqarish va sanoatda qo'llash, ilmiy faoliyatda psixologik bilimlardan foydalanish, zamonaviy ilmiy maktablar va nazariyalarning xayotga tadbig'i, ilmiy nazariyani metodologik jixatdan taxlil qilish *malakasiga ega bo'lishi kerak*.

III.Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

1-Modul. Psixologiya metodologiyasi fanining nazariy masalalari

1-mavzu. Metodologiya fan sifatida

Metodologiya tushunchasining mazmuni, metodologiyaga tavsif va funktsiyalari. Metodologiyaning mazmuni, o'zaro bog'liq tushunchalar tizimida metodologiya kategoriyasi.

2-mavzu. Metodologiya ilmiy bilishning tarkibiy qismi

Metodologiyaning umumfalsafiy darajasi. Metodologiyaning umumilmiy darajasi. Ilmiy va noilmiy bilishning xususiyatlari. Hozirgi zamon ilmiy bilimlarining tuzilishi. Ilmiy nazariyalarni tasdiqlash va tuzilish usullari. Ilmiy bilimlar tuzilishining qonuniyatlari. Ilmiy bilimlarni egallash bilan bog'liq muammolar. Ob'ektiv reallikda ilmiy bilimlar va ilmiy tadqiqotning munosabati. Ilmiy tadqiqotni tashkil qilishning validligi va uning natijalari. Ilmiy bilimlarni egallash muammosi.

2-Modul. Psixik hodisalarni o'rganishning ilmiy konsepsiyalari

3-mavzu. Psixik hodisalarni ilmiy tadqiq qilish muammosi

Ilmiy bilish psixik hodisa sifatida va uning natijalari. Psixik hodisalarni o'rganishning nazariy va empirik qiyinchiliklari. Psixologiyaning asosiy metodologik tamoyillari. Bilishning umumilmiy tamoyillari. Antrop tamoyili, determinatsiya tamoyili, sababiy determinatsiya. Statistik determinatsiya. To'ldiruvchi tamoyil. Invariantlik tamoyili. Metodik ateizm tamoyili. Ob'ektivlik tamoyili. Nisbiylik tamoyili. O'zini o'zi tashkillashtirish tamoyili. Tizimlilik tamoyili. Moslik tamoyili. Noaniqlikning o'zaro munosabati tamoyili. Tengsizlikni barqarorligi tamoyili. Yaxlitlik tamoyili. Maxsus psixologik tamoyillar. Determinizm tamoyili. Ong va faoliyat birligi tamoyili. Shaxs yo'nalganligi tamoyili. Rivojlanish tamoyili. Tizimli yo'nalganlik tamoyili.

4-mavzu. Psixik hodisalarni tushuntirishda nazariy yo'nalish va umumpsixologik nazariyalarni bir-biriga zidligi.

Xulq-atvor psixologiyasida psixik hodisalarni tushuntirish va tahlil qilishda aniq tabiiy-ilmiy yo'nalish. Klassik bixeviorizm. Kognitiv psixologiyada psixik hodisalarni tushuntirish va tahlil qilishda axborot-kibernetik yo'nalish. Psixik hodisalarni tushuntirish va tahlil qilishda madaniy-tarixiy va tizimli faoliyatli yo'nalishlar.

5-mavzu. Shaxs nazariyalarining bir-biriga qarama-qarshiligi.

Shaxsning nazariyalarining bir-biriga zidligi. Psixik hodisalarni tushuntirish va tahlil qilishda shaxs faoliyatli yo'nalish nazariyasi.

6-mavzu. Ta'lim va psixik xususiyatlar nazariyasi.

Temperament borasidagi nazariyalar. Xarakterga doir nazariyalari. Qobiliyatlar borasidagi nazariyalar.

7-mavzu. Emotsional hodisalar nazariyasi.

Irodaviy boshqaruv va motivatsion nazariya. Shaxs motivi va uning shakllanishi. Motivatsiyaning kognitiv va xulq-atvor nazariyasi. Motivatsiya jarayonini tushuntirishda faoliyatli yo'nalish. Emotsional hodisalarni psixologik nazariyasi. Psixik va fiziologik funktsiyalarini emotsiya mazmuni haqidagi faraz bilan bog'liqligi. Emotsiyaning biologik va emotsional tavsifi. Emotsional hodisalarni tushuntirish va nazariy tahlil qilishda mazmunli-psixologik yo'nalishidagi farqlar. Faoliyatli yo'nalish tizimida emotsional hodisalar mazmunini funktsional tushuntirish va nazariy tahlil qilish. Xulq-atvor va faoliyatni irodaviy boshqaruvi va erkinligi.

8-mavzu. Inson tafakkurining genetik, funktsional, tuzilishli nazariyalari.

Tarixiy taraqqiyotda tafakkur jarayonlarini tushuntirish va nazariy tahlil qilishning turli xil yo'nalishlari. Hozirgi zamon psixologiyasida tafakkur nazariyalari. Jahon psixologiyasida tafakkur nazariyalari.

9-mavzu. Inson xotirasining genetik, funktsional, tuzilishli nazariyalari.

Kognitiv psixologiyada xotira modeli va nazariyasi. Kognitiv psixologiyada xotira jarayonini tuzilish modeli. Bilimlarni reprezentatsiyasi va uzoq muddatli xotirada bilimlar tuzilishidagi kamchiliklar nazariyasi. Psixik hodisalarni tushuntirish va tahlil qilishda madaniy-tarixiy va faoliyatli yo'nalishlarda inson xotirasi tuzilishi nazariyasi.

Inson diqqatining genetik, funktsional, tuzilishli nazariyalari, kognitiv psixologiyada diqqat modeli va nazariyasi. Diqqat jarayonini tushuntirishda tarixiy-madaniy va faoliyatli yo'nalish.

IV. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarda talabarlarda psixologiya fanining metodologiyasiga doir bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilinadi.

1. Metodologiya fan sifatida.
2. Metodologiya ilmiy bilishning tarkibiy qismi.
3. Psixik hodisalarni ilmiy tadqiq qilish muammosi.
4. Psixik hodisalarni tushuntirishda nazariy yo'nalish va umumpsixologik nazariyalarni bir-biriga zidligi.
5. Shaxs nazariyalarining bir-biriga qarama-qarshiligi.
6. Ta'lim va psixik xususiyatlar nazariyasi.
7. Emotsional hodisalar nazariyasi.
8. Inson tafakkurining genetik, funktsional, tuzilishli nazariyalari. Inson xotirasining genetik, funktsional, tuzilishli nazariyalari.
9. Inson diqqatining genetik, funktsional, tuzilishli nazariyalari.

V. Kurs ishini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar

“Psixologiya fanining metodologiyasi” fanidan kurs loyixalarining mavzulari

1. Klassik bixeviorizm.
2. Kognitiv psixologiyada psixik hodisalarni tushuntirish va tahlil qilishda axborot-kibernetik yo'nalish.

3. Psixik hodisalarni tushuntirish va tahlil qilishda madaniy-tarixiy va tizimli faoliyatli yo'nalishlar.
4. Psixik hodisalarni tushuntirish va tahlil qilishda shaxs faoliyatli yo'nalish nazariyasi.
5. Temperament borasidagi nazariyalar.
6. Xarakterga doir nazariyalari. Qobiliyatlar borasidagi nazariyalar.
7. Irodaviy boshqaruv va motivatsion nazariya.
8. Shaxs motivi va uning shakllanishi.
9. Motivatsiyaning kognitiv va xulq-atvor nazariyasi.
10. Motivatsiya jarayonini tushuntirishda faoliyatli yo'nalish.
11. Emotsional hodisalarni psixologik nazariyasi.
12. Xulq-atvor va faoliyatni irodaviy boshqaruv va erkinligi.
13. Hozirgi zamon psixologiyasida tafakkur nazariyalari.
14. Jahon psixologiyasida tafakkur nazariyalari.
15. Kognitiv psixologiyada xotira modeli va nazariyasi.
16. Diqqat jarayonini tushuntirishda tarixiy-madaniy va faoliyatli yo'nalish.

Kurs ishi tuzilishi va rasmiylashtirish

Titul varag'i: U quyidagicha talablar bilan rasmiylashtiriladi:

- yuqorida –o'quv yurti nomi va kafedra nomi.

-vara q o'rtasida -talaba familiyasi, ismi, sharifi, shuningdek fakultet hamda kursi:

- pastga- kurs ishi mavzusi yoziladi:

- pastdan o'ng tomonga- ilmiy raxbarning familiyasi, ismi, sharifi;

-eng pastga – kurs ishi yozilgan shahar va yil ko'rsatiladi.

Kurs ishining mazmuni

Mundarija

Kurs ishi rejasi. Unda kurs ishining bo'limi va betlari aniq ko'rsatilgan bo'ladi.

Kirish. Bu qism tadqiqot mavzusi dolzarbligini asoslashi kerak, bunda tadqiqotning dolzarbligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, maqsadi, ob'ekti, predmeti, vazifalari, ilmiy faraz, metodlar, tadqiqotning metodologik asosi, nazariy ahamiyati aks ettiriladi.

Kurs ishining asosiy qismi. O'ziga bir necha bo'limlarni o'z ichiga oladi. Nazariy qismda tadqiqot muammosinining fundamental ilmiy asoslari yoritib beriladi, adabiyotlarning tanqidiy analizi keltiriladi, avtorning shaxsiy pozitsiyasi ko'rsatiladi. Eksperimental qismda mustaqil olib borilgan tadqiqot metodlari natijalari aks etadi. Eksperimental tadqiqot natijalari turli grafik, jadvallarda aks ettiriladi.

Kurs ishini rasmiylashtirish

Kurs ishining matni kompyuterda terilgan, 25-30 varaqni tashkil etilishi Times New Roman, 14-shriftida yozilishi, A4 farmotdagi stardart qog'ozning 1 tarafiga 1,5 intervalda terilishi kerak. Chapdan-3sm, o'ng tarafdan-1,5 sm, tepadan-2,5sm, pastdan-2sm bo'lishi kerak.

Xulosa: Unda ishning natijasi avtor kelgan xulosasi, uning amaliy ahamiyati va mavzuning kelgusi istiqbollari ko'rsatiladi. Xulosaga qo'yiladigan talablar;

-uning qisqaligi unda kirish qismi mazmunini to'liq qaytarmaslik kerak. Umuman olganda xulosada quyidagi savollarga javob bo'lishi kerak.

-nima uchun talaba mazkur tadqiqotni o'rgandi.

-nimalar qilindi?

-avtor qanday xulosalarga keldi?

Xulosalar va olingan natijalarga asoslangan holda tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar. avtorning familiyasi yoki adabiyot nomining (agar avtor familiyasi, bo'lmasa) alfavit tartibi bo'yicha tuzilishi kerak.

Manbalarni rasmiylashtirishda avtorning familiyasi va initials, ishning nomi, nashriyoti nomi, yili umumiy betlari soni ko'rsatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlarni rasmiylashtirishda eng avvalo, qonuniy-me'yoriy xujjatlar, farmonlar, buyruqlar, Prezident asarlari, muammogna oid fundamental-nazariy adabiyotlar, vaqtli matbuot nashrlari, internet saytlari keltiriladi. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati 15 tadan kam bo'lmasligi kerak.

Ilova. Kurs ishi yozishda talab etilgan hajmdan tashqari yana bir qancha ilovalar keltiriladi. Shuning uchun ular oxiriga adabiyotlar ro'yxatidan keyin joylashtiriladi. Har bir ilova nomlanishi va tepadagi o'ng burchakda «ilova» va tartib raqami ko'rsatiladi. Masalan «Ilova 1», «Ilova 2» shaklida bo'lishi mumkin.

VI. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

Talaba mustaqil ta'limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

-darslik va o'quv qo'llanmalar boyicha fan boblari va mavzularini o'rganish;

-tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;

-maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash; masofaviy ta'lim.

Talabaga mustaqil ta'limning mavzulari beriladi, bu mavzular bo'yicha egallanishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar, muddati va topshirish shakli aytiladi. Ko'rsatilgan muddatda nazariy material konspekti, referati ko'riladi, test yoki savol-javob o'tkaziladi.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'limni mavzulari:

1. Psixologiyaning nazariy va metodologik muammolari fanining rivojlanish tarixi hamda fanlar tizimida tutgan o'rni.
2. Psixologiya fanining metodologik asoslarini o'ziga xos jihatlari.
3. B.F.Lomovning "Psixologiya fanining metodologik va nazariy muammolari" asarining tahlili va uni fan tarixidagi o'rni.
4. Psixologiya fanlarining metodologiyasida sababiylik va determinizm tamoyilining o'rni.
5. Faoliyat nazariyasini metodologik yondashuv sifatidagi tahlili.
6. V.P.Zinchenkning "Psixologiya fanining nazariy olamini anglash yo'lida" asarini tahlili.
7. Shaxs nazariyalarining fan metodologiyasidagi o'rni.

8. Psixologiyaning nazariy va amaliy fan sifatidagi dolzarb muammolari (Kozlov tadqiqotlarining taxlili asosida)
9. Psixologiyaning nazariy va amaliy metodlari tahlili.
10. Psixologik tadqiqotlarni o'tkazishning metodologik tamoyillari.
11. Ilmiy psixologiyaning nazariy asoslari.
12. Psixologiyadagi inqirozlar va umumiy metodologiya muammosi.
13. O'zbek psixologlari tadqiqotlarida umummetodologik muammolarning tahlili.
14. Nazariy va amaliy psixologiyaning metodologik tamoyillari.
15. Psixologik ta'limotlar tuzilishining printsiplari.

VII. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari
Asosiy ada biyotlar:

1. Маланов С.В. Методические и теоретические основы психологии. Учебное пособие Москва- Воронеж, 2005— 323 с.
2. Методологические основы психологии: хрестоматия; учебно-методическое комплекс / авторы и составители С.Ю. Манухина, А.Н. Занковский. – М., Изд. центр ЭАОИ, 2009. – 152 с.
3. Никандров В.В. Методологические основы психологии. Учебное пособие. — СПб.: Речь, 2008. — 235 с.

Qo'shimcha adabiyotlar

4. Мирзиёев Ш.М. Танкидий тахлил қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятини қундалиқ қондаси бўлиши керак Ўзбекистон Республикаси Вазирлар маҳкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йил истикболларига бағишланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи //Халқ сўзи газетаси 2017 йил 16 январ №11.

5. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. “Ўзбекистон” 2016.

6. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қўрамиз. “Ўзбекистон” 2017

7. Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев 2017—2021 йилларда Ўзбекистонни ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракат стратегияси. 7 январ 2017 йил.

8. Асмолов А. По ту сторону сознания: методологические проблемы неклассической психологии М., Наука 2002. 169 с

9. Мазитов В.А. Методологические и теоретические проблемы психологической науки М., Наука 2003.- 85 с.

Izoh: Qo'shimcha adabiyotlar boshqa ilmiy kutubxonalarda mavjud.

Internet saytlari

10. www. tdpu. uz
11. www. pedagog. uz
12. www. Ziyonet. uz
13. www. edu. uz
14. tdpu-INTRANET. Ped

Izoh: qo'shimcha adabiyotlar boshqa axborot-resurs markazlarida mavjud